

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALARNI BERUVCHI PhD. 03/27.02.2021.Tar.70.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

ERALOV AZAMAT JOMURODOVICH

**O‘ZBEKISTONNING JANUBIY VILOYATLARIDA TURIZMNING
RIVOJLANISH TARIXI (1991-2020-yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Eralov Azamat Jomurodovich

O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida turizmning rivojlanishi (1991-2020-
уу.).....3

Эралов Азамат Жомуродович

Развитие туризма в южных областях Узбекистана (1991-2020
годы).....25

Eralov Azamat Jomurodovich

Development of tourism in the southern regions of Uzbekistan (1991-
2020).....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications.....54

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALARNI BERUVCHI PhD. 03/27.02.2021.Tar.70.05
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

ERALOV AZAMAT JOMURODOVICH

**O‘ZBEKISTONNING JANUBIY VILOYATLARIDA TURIZMNING
RIVOJLANISH TARIXI (1991-2020-yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Tar777 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb–sahifasida (www.ik-tarix.nuu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot–ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergasheva Yulduz Alimovna

tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Hasanov Akrom Mo‘minovich

tarix fanlari doktori, dotsent

Egamberdiyeva Go‘zal Akramjanovna

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____- raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel (99875)221-34-13, faks: (375)221-00-56, e-mail: qarshidu@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “____” _____ kun tarqatildi.
(2023-yil “____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.J.Eshov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor.

N.N.Rajabova

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.n., dots.

O.Bo‘riyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar rais o‘rinbosari t.f.n., dots.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi kunda turizm sohasi ko'plab mamlakatlar iqtisodining asosiy tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Shu jumladan O'zbekiston ham turizmning markazlaridan biri bo'lib kelgan. Qadimdan sayyohlarni jalb etuvchi, Xitoy va Yevropa davlatlarini bir-biriga bog'lab turuvchi Buyuk ipak yo'lining o'tganligi ham mamlakatimizda turizmning qanchalik boy tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu yo'lda juda ko'plab miqdordagi me'moriy obidalar va tarixiy madaniyatga ega bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon kabi shaharlar joylashgan. Mazkur shaharlarda har yili minglab nafar turistlarning tashrif buyurishi fikrimizning isbotidir.

Dunyo yetakchi davlatlarining ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida turizmni rivojlantirish, sohadagi muammolarni o'rganishga, tarmoq istiqbollarini belgilab berishga qaratilgan ilmiy izlanishlar hamda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, turizm va turistik xizmatlarni yo'lga qo'yish omillari, sohani rivojlantirish muammolari va uni rivojlantirish masalalarini innovatsion yondashuvlar orqali o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa ichki va tashqi turizm, tarixiy-madaniy turizm, ziyorat turizmi, ekoturizm, tabiat turizmi kabi turizmning turli tarmoqlarni tadqiq etishga e'tibor tobora kuchayib bormoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab o'z tarixini chuqur o'rganish va uni yanada keng isloh qilish yo'lidan bosqichma-bosqich bormoqda. Shu jabhada yurtimizning tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan turizm sohasi qaytadan tiklanib, unga bo'lgan e'tibor kuchaytirildi hamda hozirgi kunga qadar tub islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston juda katta turistik salohiyatga ega davlat hisoblanadi. Yurtimizga xorijiy sayyohlarni jalb etish, turistik xizmatlarning xilma-xilligini oshirish maqsadida yangi marshrutlar joriy qilinmoqda. Bugungi kunda mahalliy turistik faollar jahonning turli mamlakatlari: London, Berlin, Madrid, Milan, Moskva, Shanxay, Seul, Tokioda tashkil etilayotgan xalqaro yarmarkalarda faol ishtirok etishmoqda. Dunyoning yetakchi mamlakatlari turoperatorlari bilan o'zaro hamkorlik shartnomalari imzolanib, respublikamizga keluvchi sayyohlar oqimini ko'paytirishga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir¹». O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonning turistik imkoniyatlarini aniqlash, tarmoqni rivojlantirish va kengaytirishga yo'naltirilgan omillarni tahlil qilish, ulardan oqilona foydalanish yo'llarini ko'rsatish kabilar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi,

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-j. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018. –B.128.

2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son “O‘zbekiston Respublikasida turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekistonda turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 6-fevraldagi PQ-3509-son “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-son “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2019-yil 18-iyulda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni hamda sohaga oid boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlar belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda turizmning rivojlanishiga oid ilmiy adabiyotlarni muammoli-xronologik jihatdan, bayon qilish uslubiy-metodologik yondashuvlar va xususiyatiga qarab uch guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruhga mustaqillik yillarida turli soha mutahassislari tomonidan nashr etilgan adabiyotlarni kiritish mumkin². Iqtisodiy va ijtimoiy fanlarning turli sohalarida, jumladan, geografiya, huquq, falsafa, iqtisodiyot kabi fanlarda mamlakat turizm industriyasi, uning turizm tarmoqlari bilan bog‘liq qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu asarlar mualliflari O‘zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilgan ishlarning ayrim jihatlari yuzasidan fikrlar bildirib o‘tishgan. Xususan, A.Eshtayevning “Turizm industriyasini boshqarishning marketing

² Allaberganov A.A. Turizm industriyasi. -T.: “Talqin”, 2004. – 110 b.; Aliyeva M.T. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti darslik, -T.: TDIU. 2009-yil, - 146 b.; Axmedov X.I. Allaberganov A.A. Turizm faoliyatini tashkil etish. -T.: 2004. – 170 b.; Boltaboyev M.R. Tuxliyev I.S, Safarov B.SH., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. -T., 2017. – 196 b.; Eshtayev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. Monografiya. -T.: “Fan”, 2011; Gadoyev K., Berdiyeva S. Jahongashta sayyoh olimlar.-T.: “O‘zbekiston”, 2012; Kamilova F.K., Komilova F.K. Mukammal turizm g‘oyasi. “Iqtisodiyot va ta‘lim” 2-son, 2003-yil. – 98 b.; Komilova F.K. Turizm sohasining rivojlanish istiqbollari. “Iqtisodiyot va ta‘lim”, 1-son, 2004 yil. – 68 b.; Mamatqulov X.M. Turizm va servisga oid izohli lug‘at. Samarqand: “SamISI”, 2010; Nazarova G., Komilova F. “O‘zbekistonda turizm imkoniyatlarini kengaytirish”. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. Jurnal. 2000 yil. – 140 b.; Ochilova X.F. Gastronomicheskiy turizm. -T.: “IQTISODIYOT”, 2017. – 147 b.; Nig‘monov A. Shomurotova N. Ekoturizm asoslari. -T.: “Turon”, 2007. – 234 b.; Qudratov G‘.X., Tuxliyev I.S. Turizm iqtisodiyoti. Samarqand, 2007. – 313 b.; Saidov A.F. O‘zbekistonda turizm: istiqbol va muammolari, -T.: “Mehnat”, 1992. – 211 b.; Saidov A.F. Turizm tinchlik va farovonlik timsoli. -T., 2007-yil. – 245 b.; Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorining innovatsion rivojlantirish metodologik asoslari. -T.: “Fan va texnologiya”, 2016. – 186 b.; Tuxliyev I.S., Kudratov G.X., Pardayev M.K. Turizmni rejalashtirish. – T.: “Iqtisod va moliya”, 2010. – 238 b.; Usmanov M.R. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Samarqand viloyati misolida): Avtoref. diss. geogr. fan. nomz. -T., 2003. – 25 b.; O‘ktam Xo‘jayorov. Betakror Qashqadaryoning turizm istiqbollari // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1-son, 2014-yil; Xodiyev B.Y. va boshqalar. O‘zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarida. -T.: “Iqtisodiyot”, 2007. – 200 b.; Zokir Tadjixodjayev, Abror Jo‘rayev, Halim Hamroyev. Turizm sohasiga yetuk kadrlar tayyorlash. // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1/2014-yil. O‘zbekistonning Strategik taraqqiyotida turizm: muammolar va istiqbolli rejalar. -T., 2019. – 119 b.; Tuxliyev N. Milliy turizm modeli, uning mohiyati va xususiyatlari / O‘zbekistonning Strategik taraqqiyotida turizm: muammolar va istiqbolli rejalar. – T., 2019. – 282 b.; Jiyonov U. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish omillari va shart sharoitlarini baholash. – T., 2019. – 265 b.

strategiyasi” nomli monografiyasida turizm industriyasida marketing strategiyasi, M.Usmonovning “O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari (Samarqand viloyati misolida)” mavzusidagi ilmiy tadqiqotida Samarqand viloyatida sayyohlik sohasini rivojlantirish xususiyatlari yoritib berilgan.

Ikkinchi guruh turizm sohasi bo‘yicha tarixchi olimlar tomonidan nashr etilgan adabiyotlarni o‘z ichiga oladi³. Jumladan, M.Mansurovning “Mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysida turizm taraqqiyoti va istiqbollari” mavzusidagi tadqiqot ishida vodiya istiqloq davrida turizm sohasining ravnaqi, G.Egamberdiyevaning “O‘zbekistonda turizm sohasidagi transformatsiya jarayonlari (1991-2020-yy.)” mavzusidagi tadqiqotida esa O‘zbekistonda turizmning shakllanishi va rivojlanishida transformatsiya jarayonlari haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Xorij mualliflarining asarlari⁴ uchinchi guruhga kiritilib, ular tomonidan yozilgan asar va maqolalarda ziyorat turizmi, tarixiy-madaniy turizm, ekoturizm va turizm sohasiga doir masalalar o‘rganilgan. Mualliflar jahonda davlatlarning turizmni rivojlanishi, turizm industriyasi, yo‘nalishlari va iqtisodiy taraqqiyotda o‘rni masalasini tadqiq etishgan.

Xullas, turizm tarixi mavzusi yuzasidan turli yo‘nalishdagi adabiyot va tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida turizmning rivojlanish tarixi yagona tadqiqot obyekti sifatida dissertatsiya shaklida o‘rganilmagan. Shu sababdan ham mustaqillik yillarida mintaqada turizm sohasini rivojlantirish jarayoni ahamiyatini o‘rganib, xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biridir.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot muammolari” bosh mavzusi doirasida bajarilgan.

³ Джалилов О.З. Проблемы и перспективы развития историко-культурного туризма в Узбекистане 1991-2011 гг.: Автореф. дисс. канд. ист. наук. — Ташкент, 2011. — 27 с.; Norqulova D.Z. O‘zbekistonda sotsial turizm xizmatlarini rivojlantirishni tashkiliy iqtisodiy mexanizmini takkomillashtirish.: Tarix fan. dok. avtoref. (PhD). — Samarqand, 2018. — 154 b.; Mansurov M.Sh. Mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysida turizm taraqqiyoti va istiqbollari: Tarix. fan. fal. dokt. diss. (PhD). — Toshkent, 2019. — 148 b.; Muxamedova M.S. O‘zbekistonning tarixiy shaharlaridagi muzeylashtirilgan obyektlarda turizmning shakllanishi va rivojlanish istiqbollari (XX asr yarmi XXI boshlari): Tar. fan. dokt. diss. (PhD). - Toshkent, 2020. — 126 b.; Рахимов С.А. История взаимоотношений с международными и региональными организациями (на примере ШОС и СНГ): Автореф. дисс. док. ист. наук. (PhD). - Ташкент, 2020. — 29 с.; Mo‘minov A.Z. O‘zbekistonda ekologik turizmning rivojlanish jarayonlari (1991-2020-yy.): tarix. fan. fal. dokt. diss. avtoref. (PhD). — Toshkent, 2021. —24 b.; Эгамбердиева Г.А. Трансформационные процессы в Узбекистане в сфере туризма (1991-2020 гг.): Автореф. док. ист. наук. (PhD). - Ташкент, 2022 — 26 с.

⁴ Квартальное В.А. Туризм социальный: история и современность. — Киев: Высшая школа, 1989. — 341 с.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. — Москва: “Финансы и статистика”, 2000; Папирян Г.А. Менеджмент в индустрии гостеприимства (отели и рестораны). — Москва: ОАО НПО: Изд-во “Экономика”, 2000; Пузакова Е.П. Международный туристический бизнес. — Москва: издательство “ПРИОР”, 2001; Биржаков М.Б. Введение в туризм: — Санкт-Петербург: Герда, 2004. — 448 с.; Сапожникова. Э. Н. Страноведение: Теория и методика туристического изучения стран. — Москва: “КНОРУС”, 2005. — 240 с.; Карпова Г.А., Хорева Л.В. Экономика и управление туристской деятельности. — Санкт-Петербург: СПбГУЭФ, 2011. — 135 с.; Сушинская М.Д. Культурный туризм. — Москва, 2019. — 157 с.; Боголюбов В.С. Менеджмент в туризме и гостиничном хозяйстве. — Москва, 2019. — 293 с.; Золотовский В.А. Правовое регулирование туристской деятельности. - Москва, 2019. — 247 с.; Севастьянов Д. В. Страноведение и международный туризм. — Москва, 2019. — 317 с.

Tadqiqotning maqsadi 1991-2020-yillarda O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida turizmning rivojlanishi tarixini ilmiy jihatdan tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat siyosatining yo‘nalishlari va uning janubiy viloyatlarga tadbir natijasini yoritib berish;

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida turizmni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari tadqiq etish;

mintaqa viloyatlarida turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlarini bayon etish;

janubiy viloyatlarda turizmni rivojlanishida tarixiy-madaniy meros obyektlari va muzeylarining ahamiyati asoslab berish;

O‘zbekistonning turizm salohiyatini ommalashtirish yo‘nalishlarini ko‘rsatib berish;

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida etno va ekologik turizmini rivojlanish istiqbollari ochib berish;

mavzu bo‘yicha xulosa, taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida 1991-2020-yillarda turizmning rivojlanishi tarixi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini 1991-2020-yillarda O‘zbekistonning janubiy viloyatlaridagi turizm infratuzilmasi, moddiy-texnik ahvoli, yo‘nalishlari, tarixiy-madaniy turizm holati, sohada amalga oshirilgan islohotlar va o‘zgarishlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada xronologik izchillik va tarixiylik tamoyillari, xolislik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, retrospektiv, og‘zaki tarix usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida turizmni rivojlanishi jarayonlarining uchta muhim bosqichi aniqlanib, **birinchi bosqich** – 1991-2005-yillarda turizmning me‘yoriy-huquqiy asoslari yaratilganligi va sohada bozor mexanizmining faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi, **ikkinchi bosqich** – 2006-2015-yillarni o‘z ichiga olib, turizm sohasida xizmat ko‘rsatish va servisni rivojlantirishni jadallashtirish, investitsiya va marketing amalga oshirilishi natijasida turizm sohasida turli tarmoqlar vujudga kelishi, sohada tadbirkorlik va raqobat muhitini yaratilganligi va **uchinchi bosqich** – 2016-yildan boshlanib, turizm sohasini jadal rivojlanishi va mamlakat iqtisodiyotini strategik tarmog‘iga aylanishi, zamonaviy yondashuvlar asosida turizm sohasining rivoji hamda uni viloyatlar iqtisodiyotining muhim tarmog‘iga aylantirishda sezilarli darajada kengaytirilganligi va ijtimoiy muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etganligi qiyosiy-ilmiy tahlillar asosida dalillangan;

- O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida qadimgi va o‘rta asrlar shaharlari, me‘moriy obidalarning mavjudligi, o‘lkashunoslik jihatdan e‘tiborni tortishi, mintaqaning qulay geografik joylashuvi, maftunkor tabiati orqali ayniqsa ekologik va ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari katta ekanligi hamda ulardan yetarli darajada foydalanilganligi dalillar orqali asoslangan;

- Janubiy viloyatlarda turizmni taraqqiy ettirishning istiqbolli yoʻnalishlari hisoblangan – togʻ turizmi (Boysun, Hisor, Pomir-Oloy togʻlari), ziyorat turizmi (Al-Hakim at-Termiziy, Sulton Saodat, Abu Muʼin an Nasafiy, Oqsaroy ziyoratgohlari), gastronomik turizm (tandir, yaxna, osh, somsa), ekoturizm (Sangardak sharsharasi, Sayrobdagi chinor, Oqsuv daryosi va Suvtushar sharsharasi), qishloq turizmi (Omonxona, Tuz kon, Gʻilon, Varganza qishloqlari), etnoturizmning rivojlanish imkoniyatlarining mamlakat ravnaqidagi ulkan ahamiyati asoslangan;

- Respublikaning janubiy hududlariga tashrif buyurgan xorijiy va mahalliy sayyohlar oqimi turlicha boʻlganligi asoslanib turizm infratuzilmasi yaxshi rivojlanmaganligi, dunyoda turli kasalliklarni tarqalganligi sababli ichki va tashqi turizm dinamikasi ilmiy-qiyosiy tahlillar asosida ilk marta taqqoslab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Oʻzbekistonning janubiy hududlarida turizmning rivojlanish tahlil etilib, turizm siyosatining ustuvor yoʻnalishlarini tatbiq etishda qoʻllanishi mumkin boʻlgan jihatlar aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan respublikadagi turizmning rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshirish, xususan viloyatlar Turizm va madaniy meros boshqarmalari faoliyatida foydalanishi uchun uslubiy tavsiyanomalar ishlab chiqishiga xizmat qildi.

Mintaqada turizmni rivojlanish tarixiga oid arxiv hujjatlar va boshqa birlamchi manbalar ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondoshuv va usullarning qoʻllanilganligi, birlamchi arxiv manbalariga asoslanganligi, jumladan Oʻzbekiston Milliy Arxivi, Turizm va sport vazirligi joriy arxivi, Madaniyat vazirligi joriy arxivi, Respublika Madaniy meros departamenti joriy arxivi, Qashqadaryo viloyati davlat arxivi, Qashqadaryo viloyati turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxivi, Surxondaryo viloyati joriy arxivi, Surxondaryo viloyati madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxivi hujjatlari, koʻp turdagi ilmiy adabiyotlar, davriy matbuot materiallari va internet saytlaridan foydalanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qashqadaryo va Surxondaryo vohasida turizmning rivojlanish tarixi, xususan, ziyorat turizmi, arxeologik turizm, ekologik turizm, etno-turizm, hunarmandchilik turizmi, gastronomik turizm, togʻ va qishloq turizmi turlari toʻgʻrisida ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish hamda ushbu masalaga doir ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy jihati turizm sohasini yanada rivojlantirishga yoʻnaltirilgan maqsadli davlat dasturlarini amalga oshirilishiga, yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqishga, hududlardagi turistik salohiyatni ochib berishga, yurtimizga sayyohlar tashrifini oshirishga, oʻquv yurtlari talabalari uchun qoʻllanma va darsliklarning mukammallashuviga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida turizmning rivojlanish tarixi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va olingan ilmiy natijalaridan:

O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida turizmni rivojlanishi jarayonlarining uchta muhim bosqichi aniqlanib, birinchi bosqich – 1991-2005-yillarda turizmning me‘yoriy-huquqiy asoslari yaratilganligi va sohada bozor mexanizmining faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi, ikkinchi bosqich – 2006-2015-yillarni o‘z ichiga olib, turizm sohasida xizmat ko‘rsatish va servisni rivojlantirishni jadallashtirish, investitsiya va marketing amalga oshirilishi natijasida turizm sohasida turli tarmoqlar vujudga kelishi, sohada tadbirkorlik va raqobat muhitini yaratilganligi va uchinchi bosqich – 2016-yildan boshlanib, turizm sohasini jadal rivojlanishi va mamlakat iqtisodiyotini strategik tarmog‘iga aylanishi, zamonaviy yondashuvlar asosida turizm sohasining rivoji hamda uni viloyatlar iqtisodiyotining muhim tarmog‘iga aylantirishda sezilarli darajada kengaytirilganligi va ijtimoiy muammolarni yechishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligining 2022-yil 27-sentabrdagi 01-011-3061-sonli ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi yurtimizga sayyohlar oqimini oshirish, mamlakatimiz ma‘naviyati va ma‘rifati hamda madaniyatini dunyoga tanitish, xalqlar orasidagi o‘zaro do‘stlik aloqalarini rivojlantirish imkonini bergan.

O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida qadimgi va o‘rta asrlar shaharlari, me‘moriy obidalarning mavjudligi, o‘lkashunoslik jihatdan e‘tiborni tortishi, mintaqaning qulay geografik joylashuvi, maftunkor tabiati orqali ayniqsa ekologik va ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari katta ekanligi hamda ulardan yetarli darajada foydalanilganligi bo‘yicha olib borilgan ishlarni ikki viloyat miqyosida tahlil etishda foydalanilgan (Xalqaro “Oltin Meros” xayriya fondining 2022-yil 20-sentabrdagi 01-35-sonli ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi mamlakatimizdagi madaniy meros obektlarini saqlash va muhofaza qilishda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar targ‘ibotida hal qiluvchi sohalardan biri ekanligini asoslab berish imkonini bergan.

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2022-yilda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha janubiy viloyatlarda turizmni taraqqiy ettirishning istiqbolli yo‘nalishlari hisoblangan – tog‘ turizmi (Boysun, Hisor, Pomir-Oloy tog‘lari), ziyorat turizmi (Al-Hakim at-Termiziy, Sulton Saodat, Abu Mu‘in an Nasafiy, Oqsaroy ziyoratgohlari), gastronomik turizm (tandir, yaxna, osh, somsa), ekoturizm (Sangardak sharsharasi, Sayrobdagi chinor, Oqsuv daryosi va Suvtushar sharsharasi), qishloq turizmi (Omonxona, Tuz kon, G‘ilon, Varganza qishloqlari), etnoturizmning rivojlanish imkoniyatlarining mamlakat ravnaqidagi ulkan ahamiyatidan fodalani (Respublika ma‘naviyat-ma‘rifat markazi hududidagi ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2022-yil 14-oktabrdagi 313-sonli dalolatnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi turizm sohasini rivojlantirish O‘zbekistonda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar targ‘ibotida hal qiluvchi sohalardan biri ekanligini asoslab berish imkonini bergan.

“O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqqimot” ko‘rsatuvi ssenariysini tadqiqotda aks etgan Respublikaning janubiy hududlariga tashrif buyurgan xorijiy va mahalliy sayyohlar oqimi turlicha bo‘lganligi asoslanib turizm

infratuzilmasi yaxshi rivojlanmaganligi, dunyoda turli kasalliklarni tarqalganligi sababli ichki va tashqi turizm dinamikasi ilmiy-qiyosiy tahlillar asosida ilk marta taqqoslab chiqilganligini yoritib berish, turizm bo'yicha arxivlarda, statistika qo'mitalarida saqlab kelinayotgan ma'lumotlarni umumlashtirishga oid ma'lumotlardan foydalanildi (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2022-yil 27-sentabrdagi 02-29-1577 sonli ma'lumotnomasi). Tadqiqotda O'zbekistonning janubiy viloyatlari hisoblangan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida turizmning rivojlanish tarixi batafsil tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shu jumladan, 4 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, tadqiqot qismi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"O'zbekistonda turizm faoliyati bo'yicha davlat siyosati va uning janubiy viloyatlarga tatbig'i"** nomli birinchi bobida turizm sohasidagi huquqiy-me'yoriy bazani yaratish va takomillashtirish bosqichlari tahlil qilingan, shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida turizmning rivojlanish jarayoni tarixi yoritilgan.

Mazkur bobning *birinchi paragrafida* mustaqillik yillarida respublika miqyosida turizm sohasida davlat siyosati va me'yoriy-huquqiy asoslarni yaratilishi uch bosqichga bo'lib o'rganilgan.

Birinchi bosqich – 1991-2005-yillarni o'z ichiga olib, ushbu davr mobaynida O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan qator qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar⁵ qabul qilinganligi, 1992-yilda "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi⁶

⁵ O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "O'zbekturizm" MKsining tashkil topishi" to'g'risidagi Farmoni PF-447-son. // Xalq so'zi. 1992-yil 27-iyul., O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida Farmoni 1995-yil 2-iyun PF-1162-son. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2009-yil 25-son, 282-modda, O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo'lishlari va tranzit o'tishlari tartibi to'g'risida. // <https://www.lex.uz/docs/512233>.

⁶ O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA). f. M-94, 7- ro'yxat, 91-ish, 6-varaq.

tashkil etilgandan so'ng, turizm sohasi infratuzilmalarini rivojlantirishga doir vazifalar belgilab olinganligi, 1993-yilda "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi Butunjahon turizm tashkilotiga (BTT) haqiqiy a'zo bo'lib kirganligi⁷, 1995-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar" to'g'risidagi⁸ Farmoni Buyuk ipak yo'lida turistik aloqalarni tiklash borasida strategik ahamiyatga ega bo'lganligi masalalari yoritib berilgan.

1999-yil 15-aprelda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"⁹gi Farmoni e'lon qilindi. Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2000-yil 18-martdagi 911-sonli — "Turistik xizmatlarni sertifikatsiyalash haqida"¹⁰gi Qarori turizm obyektlari sonini ortishi uchun shart-sharoit yaratib berdi.

2003-yilda "Turizm faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"¹¹gi Nizomning qabul qilinishi natijasida mulkchilik shaklidan qat'i nazar, sayyohlik tashkilotlari chetdan keltiriladigan texnologiya va mehmonxona uskunalari, sayyohlik maqsadlariga mo'ljallangan transport vositalari uchun bojxona poshinalari to'lashdan uch yil muddatga ozod qilinib, "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi tizimidagi korxonalariga xorijiy turistlarga erkin ayirboshlanadigan valyuta hisobidan sayyohlik xizmati va qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish huquqi berilib, buning uchun maxsus kassalar ochildi.

2005-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni dunyoning 117 davlatidan 240 ming nafarni tashkil etdi. Bu avvalgi yillarga qaraganda katta ko'rsatkich ekanligi dissertatsiyada batafsil ko'rsatib berilgan.

2006–2015-yillarda amalga oshirilgan islohotlarning ikkinchi bosqichi doirasida 2006-yilda "O'zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹²gi birinchi Prezident qarorining qabul qilinishi ushbu yo'nalishning yangi istiqbollari boshlab berdi.

⁷ Mamatqulov X.M., Bektemirov A.B., Tuxliyev I.S., Norchayev A.N. Xalqaro turizm. Darslik. Toshkent – SamISI. 2007. –B.345.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmoni 1995-yil 2-iyundagi PF-1162-sonli — "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2009-yil, 25-son, 282-modda.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1999-yil 15-apreldagi "2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 4-son, 96-modda.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 18-martdagi 911-sonli — "Turistik xizmatlarni sertifikatsiyalash haqida"gi Qarori. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlar to'plami, 2013-yil, 34-son, 465-modda.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-noyabrdagi 497-sonli — "Turizm faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi Qarori. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2003-yil, 21-son, 212-modda.

¹² O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006-yil 17-apreldagi PQ-325-sonli — "O'zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2006-yil, 16-son, 133-modda.

2007-yil 21-mayda “O‘zbekiston Respublikasida 2010-yilgacha bo‘lgan davrda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida¹³”gi Prezident qarori qabul qilindi. Unga muvofiq 2007—2010-yillar uchun tuzatilgan asosiy yo‘nalishlar va tadbirlarni hisobga olib, xizmatlar ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish tarmoq va hududiy dasturlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi va samaradorlik yanada oshirildi¹⁴.

O‘zbekturizm Milliy Kompaniyasining 2011-yil 27-dekabrda yig‘ilishi bayonnomasiga asosan 2012-yilda mamlakat hududida ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan qisqa muddatli dasturining amalga oshirilishi ko‘zda tutildi. 2013-yildan buyon O‘zbekistonda bahorgi-yozgi sayyohlik mavsumini ochib beradigan “Dam olish dunyosi” xalqaro O‘zbekiston sayyohlik ko‘rgazmasi o‘tkazilib, turizmning respublikadagi rivojiga katta hissa qo‘shdi.

2014-yil 13-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Turizm faoliyatini amalga oshirish va litsenziyalash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida¹⁵”gi qarori qabul qilinishi natijasida “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi turizm tashkilotlarining xodimlariga va gid (ekskursovod) larga malaka sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni, turizm xizmatlarini sertifikatlash qoidalarini, turizm xizmatlari ko‘rsatish qoidalarini ishlab chiqib tasdiqladi.

O‘zbekistonda 2014-yilda turizm sohasining asosiy parametrlari 2013-yildagi ko‘rsatkichlardan oshib ketdi, shu jumladan sayyohlik xizmatlari hajmi 116%, eksport prognozi 120 % ni tashkil etdi. O‘zbekistonda 2015-yilda 1 ming 282 sayyohlik tashkiloti, jumladan, 660 tadan ortiq mehmonxona, sayyohlik bazasi va kempinglar, 600 tadan ziyod sayyohlik kompaniyalari faoliyat ko‘rsatdi. Respublikaga kelayotgan sayyohlar soni ham yildan-yilga ko‘payib borib, 2015-yilda bu ko‘rsatgich 2 million nafardan ziyodni tashkil qildi.

Uchinchi bosqich – 2016-yildan – 2020-yilga qadar turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 1-fevraldagi “Mamlakatimizda turizm sohasini yanada rivojlantirish va turizm xizmatlari eksportini oshirishni ta‘minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish”ga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishi mintaqalarda ekoturizmni rivojlantirish masalalariga keng e‘tibor qaratganligini bilan ahamiyatli bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi¹⁶”da

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2007-yil 21-maydagi PQ-640-sonli — “O‘zbekiston Respublikasida 2010-yilgacha bo‘lgan davrda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2007-yil, 21-son, 213-modda.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi joriy arxiv materiallari. 2022-yil yanvar.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 13-martdagi 60-sonli — “Turizm faoliyatini amalga oshirish va litsenziyalash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 14-son, 231-modda.

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli — “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” Farmoni. // O‘zbekiston

ham “Turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish, o‘rta muddatli istiqbolda “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi”ga asosan, aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish rejalashtirildi”.

2017-yil 16-avgustdagi Prezidentning “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida¹⁷”gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tardi.

Prezidentning 2018-yil 3-fevral Farmoni¹⁸, 2018-yil 6-fevraldagi «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3509-son¹⁹, 2018-yil 6-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3510-son²⁰, 2018-yil 7-fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3514-son qaror²¹lari ham qabul qilindi.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha 2019-yilda Turizmni rivojlantirish sohasida quyidagi ishlar amalga oshirildi. “Turizm to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni – 5 ta - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori – 1 ta - Vazirlar Mahkamasi Qarori – 6 ta - Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi qarori – 3 ta – 2025-yilgacha bo‘lgan davrda turizmni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash turizmning rivojlanishiga o‘zining ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, davlatimiz rahbari tomonidan dunyo mamlakatlari bilan qo‘shnichilik aloqalarini mustahkamlash maqsadida turizm sohasiga alohida e‘tibor qaratila boshlandi. Bunga ko‘plab mamlakatlar bilan yurtimizga sayohlar oqimini oshirish uchun viza tartiblarini soddalashtirish, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish hamda ularni rekonstruksiya qilish, bundan tashqari turizmga oid ko‘plab huquqiy-me‘yoriy hujjatlarning qabul qilinishi ushbu soha rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Birinchi bobning *ikkinchi paragrafida* Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida turizmni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3217-sonli — “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha Birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 33-son, 845-modda.

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-sonli “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06.02.2018-yil, 06/18/5326/0657-son.

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi PQ-3509-sonli “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.01.2022-y., 06/22/52/0029-son.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevral PQ-3514-sonli “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.02.2018-y., 07/18/3514/0672-son.

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevral PQ-3514-sonli “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.02.2018-y., 07/18/3514/0672-son.

Respublika turizm rivojida Qashqadaryo zamini o‘zining boy tarixi, qadimiy osori-atiqalari, o‘tmish yodgorliklari bilan muhim o‘rin tutishi²², viloyatdagi 1311 ta madaniy meros obyektini ro‘yxatga olinganligi, ularning 1041 tasi arxeologiya, 200 tasi me‘norchilik, 43 tasi haykal va 27 tasi diqqatga sazovor joylardan iboratligi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘, Dehqonobod tumanlaridagi ajoyib sharsharalar, yashil vodiylar, Qamashi, Qarshi, G‘uzor tumanidagi muqaddas qadamjolar, Nishon, Mirishkor va Muborakdagi obod bo‘layotgan cho‘lu biyobonlar, qum barxanlari, saksovluzorlar, ajdodlarimizning buyuk va betakror madaniyati haqida so‘zlovchi ziyoratgohlar, sardobalar xorijlik sayyohlarni jalb etishda muhim ahamiyati ko‘rsatib berilgan²³.

Keyingi yillarda viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan turistik va mehmonxona xizmatlarining ko‘rsatkichlari ham o‘sib bordi. 2011-yilning 3-choragida sayoxatchilarga pullik xizmat ko‘rsatish hajmi 322158,4 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2012-yilning 3-choragida 2223785,8 ming so‘mni tashkil etdi. Sayohatchilarga pullik xizmat ko‘rsatish hajmi 2011 yilning shu davriga nisbatan 690,2 %ni tashkil etdi²⁴.

Surxondaryo viloyatida paleolitdan XX asrgacha bo‘lgan davrni qamrab olgan 561 tadan ortiq madaniy meros yodgorliklari mavjud bo‘lib, ulardan 444 tasi me‘moriy, 36 tasi muqaddas qadamjolar, 39 tasi monumental va san‘at yodgorliklari, 42 tasi diqqatga sazovor joylardir.

Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan turistik va mehmonxona xizmatlarining ko‘rsatkichi o‘sib bordi. Bu ko‘rsatkich 2004-yilda 124205,9 ming so‘m, 2005-yilda 189903,4 ming so‘m va 2006-yilda 236929,0 ming so‘m, 2007-yilda 511717,7 ming so‘m, 2008-yilda 903626,9 ming so‘m, 2009-yilda 1185532,5 ming so‘m, 2010-yilda 1610716,2 ming so‘m 2011-yilda 2025636,1 ming so‘mni tashkil etdi²⁵.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2013-yil 1-noyabr kuni «2013-2015-yillarda Qashqadaryo viloyatining turizm sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida»gi 294-sonli qarori qabul qilindi.

2013-2015-yillarda Qashqadaryo viloyatining turizm sohasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida Qashqadaryo viloyatining 43 ta tarixiy-madaniy obyektlari qayta tiklanganligi va holati yaxshilanganligi, 24 ta yangi mehmonxona qurish va 5 ta mavjudlarini qayta ta‘mirlash orqali mehmonxona xo‘jaligi 1,5 barobarga ortganligi va bir kunda 1500 nafar kishiga mehmonxona xizmatlari ko‘rsatilganligi, turistik xizmatlar 1,5 barobarga oshib uning hajmi 2015-yilga borib 4,5 mlrd so‘mni tashkil etganligi,

²² O‘zbekiston Milliy axborot agentligi davlat rasmiy axborot manbai va mamlakatdagi yetakchi axborot agentligidir “Sohibqiron Amir Temur bilan bog‘liq Tarag‘ay qishlog‘i tog‘li turizm maskaniga aylanadi”, 03.03.2021. https://uza.uz/uz/posts/sohibqiron-amir-temur-bilan-bogliq-taragay-qishlogi-togli-turizm-maskaniga-aylanadi_245976

²³ Qodirov L. X., Ravshanov D. S., Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish istiqbollari “Barqaror raqobatbardosh turistik hududlarni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari: innovatsion boshqaruv, xorij tajribasi va rivojlantirish strategiyalari”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2018-yil 14-dekabr: - Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2018.-B.424.

²⁴ Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv materiallari. 2020-yil dekabr.

²⁵ Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv materiallari. 2020-yil dekabr.

viloyatning eksport salohiyati yuqorilab, eksport hajmi 2012-yilning ko'rsatkichiga nisbatan 1,4 martaga ortganligi²⁶ ushbu paragrafda bayon etilgan.

O'zbekiston keyingi 20 yil ichida Surxondaryo viloyatida 60 ta mehmonxona, 4 ta dam olish maskani va 6 ta hunarmandchilik markazi qurishni, shuningdek, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Xitoy va Turkiyadan to'g'ridan-to'g'ri reyslarni boshlashni rejalashtirilib amalga oshirildi²⁷.

Qashqadaryo viloyatida 2018-2019-yillarda turizm infratuzilmasi obyektlarini barpo etish rejasiga ko'ra 167 ta loyiha amalga oshirildi²⁸. Ularda tarixiy-madaniy obidalarni ta'mirlash, tarmoqni axborot texnologiyalari bilan ta'minlash ko'zda tutilganligi tadqiqotda o'z aksini topgan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-maydagi "Surxondaryo viloyatining sayyohlik salohiyatidan samarali foydalanish va rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"²⁹gi qaroriga binoan viloyat sayyohlik infratuzilmasining o'sishi tubdan o'zgarganligi dissertatsiyada ko'rsatib o'tilgan.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarixiy-madaniy yodgorliklar turizmini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida viloyatga tashrif buyurayotgan turistlarni munosib kutib olish, ularni ko'ngildagidek hordiq chiqarishlari, xalqimizning shonli o'tmishi va bugungi taraqqiyoti bilan tanishlari uchun turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirilishi turistik va mehmonxona xizmatlarining turlari ko'payib ularni sifati ko'rsatkichlari ortib borishiga xizmat qildi.

Surxon vohasi hududida zamonaviy sayyohlik talabiga mos mehmonxonalar, kempinglar, motellar qurish, yodgorliklarga olib boradigan yo'llarni qurish, mavjudlarini esa ta'mirlash, viloyatda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratishga, hududning ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanishga, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirishga, milliy turizm mahsulotlarini yaratishga imkon yaratishi mazkur paragrafda yoritib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning janubiy viloyatlari hisoblangan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida turizm sohasi bir tekisda rivojlanmadi. Hududning turistik imkoniyatlariga yetarli darajada baho berilmaganligi hamda ushbu hududlarda joylashgan turistik obyektlarga sayyohlarni jalb qilish ishlarida muammolar yuzaga kelganligi, hududning o'ziga xos hisoblangan ziyorat turizmi, gastronomik turizm, tog' turizm, safari turizm yo'nalishlari bo'yicha sayyohlarda yetarlicha axborot ma'lumotlari bo'lmaganligi janubiy viloyatlarda turizmning rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

Dissertatsiyaning **"Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida turizm sohasida amalga oshirilgan islohotlar jarayonlari"** deb nomlangan ikkinchi

²⁶ Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv materiallari. 2021-yil iyul.

²⁷ Surxondaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv materiallari. 2022-yil fevral.

²⁸ Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv materiallari. 2021-yil iyul.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PF-6002-sonli "Surxondaryo viloyatining sayyohlik salohiyatidan samarali foydalanish va rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.05.2020 y., 09/20/332/0693-son.

bobida mazkur vohalarda sayyohlik sohasini rivojlantirish imkoniyatlari, shuningdek, turizmni rivojlanishida muzeylarning ahamiyati yoritilgan.

Mazkur bobning *birinchi paragrafida* Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida turizm tarmoqlarining rivojlantirish jarayonlari tadqiq etilgan.

O'zbekistonda Xorazm, Buxoro, Samarqand singari Qashqadaryo hamda Surxondaryo viloyatlari shaharlari ham ming yillar davomida shakllangan. Mazkur shaharlardagi aholining o'ziga xos mentaliteti, urf-odatlari, an'analari mavjud.

2013-yilda "O'zbekturizm" MK Qashqadaryo bo'limiga 33804 nafar sayyoh tashrif buyurib shundan, 1245 nafari MDH va 740 nafari xorijlik turistlar bo'lib, ularga 162,6 ming AQSH dollari miqdorida xizmat ko'rsatilgan, qolgan 31819 nafar mahalliy turistlar hisoblanadi³⁰.

Surxondaryo viloyati hokimligi matbuot xizmatining ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilda viloyatda 504 ta moddiy madaniy meros obyekti ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 69 tasida sayyohlarning tashrif buyurishi ko'zda tutilgan. Mazkur yilning o'tgan davrida 23 ming nafardan ziyod xorijlik va 46 mingga yaqin mahalliy sayyoh tashrif buyurganining o'ziyoq uning sayyohlik yo'nalishidagi jozibadorligi oshganidan dalolat beradi.

Sayyohlarni qabul qilish borasidagi imkoniyatlar ham yil sayin kengayib bordi. 2018-yilning o'tgan davrida 159 o'rinli 5 ta zamonaviy mehmonxona, 51 ta mehmon uylari 200 o'rinli 1 ta sog'lomlashtirish maskani foydalanishga topshirildi. Yana 26 ta mehmonxona, 5 ta sog'lomlashtirish va aholi dam olish maskanida qurilish-ta'mirlash, 12 ta mehmon uylarini tashkil etish ishlari olib borildi. Sayyohlarga transport xizmatini ko'rsatish maqsadida yuqori xavfsizlik hamda birmuncha qulayliklariga ega 18 ta avtobus olib kelindi.

2019-yilda viloyatning turizm infratuzilmasini rivojlantirish ishlari ko'lamini kengaydi, deb aytish mumkin. Xususan, 26-30-sentabr kunlari Kitob tumanidagi Varganza qishlog'ida O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish qo'mitasi va Qashqadaryo viloyati hokimligi bilan birgalikda "Anor" xalqaro festivali bo'lib o'tdi. Turli mamlakatlardan 22 nafar xorijlik mehmon (turist sifatida) tashrif buyurganligi mintaqada turizmning rivojlanganligining isbotidir.

Turizm va sport vazirligining Qashqadaryo hududiy bo'limi arxiv ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda amalga oshirilgan ishlarning tahlili turizm sohasida sezilarli ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, 2019-yilda 144,2 ming nafardan ortiq xorijiy turistlar tashrif buyurib, 2018-yilga nisbatan 1,7 baravarga oshgan. Ichki sayyohlar soni 2019-yilda 1 mln. 650 ming nafarni tashkil qilib, 2018-yilga 150 ming nafarga oshgan. Viloyatda bugungi kunda 47 ta (1 850 o'rin) mehmonxona, 67 ta (532 o'rin) oilaviy mehmon uylari, 6 ta (5 ta avtobus, 10 ta mikroavtobus, 13 ta elektrokar) turistik avtotransport korxonalari, 20 ta turoperatorlar, 26 ta gid-tarjimonlar tomonidan mahalliy va xorijiy fuqarolarga sayyohlik xizmatlari ko'rsatib kelindi³¹.

Qashqadaryo viloyatining sayyohlik salohiyati va infratuzilmasini rivojlantirish uchun 2020-yilda jami 299,3 milliard so'mlik loyiha (shu jumladan,

³⁰ Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv materiallari. 2021-yil aprel.

³¹ "Qashqadaryoga 2020-yilda qancha sayyoh tashrif buyurdi?" <https://nasafnews.uz/?p=17830>, 04.01.2021-yil.

206,6 milliard soʻmlik oʻz mablagʻlari, qolgan bank kreditlari) amalga oshiriladi va rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda 944 yangi boʻsh ish oʻrni yaratish ishlari amalga oshirildi. 2020-yilning hozirgi davriga qadar xorijiy va mahalliy turistlar uchun 2 ta turizm axborot markazlari, 41 ta namunaviy sanitariya-gigiyena shoxobchalari qurildi va 117 tasi qayta taʼmirlandi, 5 ta turistik obyektlarga olib boruvchi yoʻl koʻrsatkich belgilari, 14 ta turizm obyektlarida WI-FI hududlari tashkil qilindi.

Surxondaryo viloyatida turizm sohasida faoliyat yuritadigan malakali kadrlar tayyorlash ishi 2017-yilda Termiz davlat universitetida yoʻlga qoʻyilgan edi. Malakali mutaxassislariga boʻlgan ehtiyoj turizm xizmatlarini shakllantirish va xizmat koʻrsatishni yoʻlga qoʻyishda oʻz taʼsirini koʻrsatmoqda.

Xulosa shuki, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida maqsadli turizm xizmatlarini koʻrsatish uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirish, sayyohlarni noyob tarixiy va madaniy-meʼmoriy meros bilan keng tanishtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mintaqani madaniy-koʻngilochar tadbirlar markaziga aylantirish ustuvor yoʻnalishlar asosida amalga oshirildi.

Ikkinchi bobning *ikkinchi paragrafida* Oʻzbekistonning janubiy viloyatlarida turizmni rivojlanishida tarixiy-madaniy meros obyektlari va muzeylarining ahamiyati koʻrsatilgan.

Oʻzbekistonda 7-8 mingtadan ortiq tarixiy obidalar mavjud boʻlib, shundan 200 dan ortigʻi YUNESKO roʻyxatidan joy olgan. Mamlakatimiz islom madaniyati obidalarini asrab-avaylash va tarixiy obidalarga boy davlat sifatida dunyo miqyosida 9 oʻrinni egallab turibdi. Madaniy-tarixiy ahamiyatga ega boʻlgan obyektlardan 545 tasi meʼmoriy, 575 tasi tarixiy, 1457 tasi sanʼat va 5500 dan ortigʻini arxeologik obyektlar tashkil etadi³².

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-avgustdagi 708-f-sonli farmoyishiga asosan viloyatda turizm sohasini rivojlantirish boʻyicha 2018-yilning 11 oyida 183 mlrd.soʻmlik 54 ta loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, 810 oʻringa ega boʻlgan 11 ta joylashtirish vositalari, 21 ta restoranlar va kafelar, 4 ta turoperatorlik subyektlari tashkil qilindi. 13 ta turistik klassdagi avtobus va mikroavtobuslar, 4 ta elektromobillar olib kelindi. Avtotransport vositalari, sigveylar va velosipedlarni ijaraga berish yoʻlga qoʻyildi. Bu sohadagi eng muhim qadam 2018 yilda Toshkent shahridan Shahrisabz shahrigacha tez yurar (Afrosiyob) poyezdi qatnovi yoʻlga qoʻyildi. Qarshi xalqaro aeroportini “Ochiq osmon” tizimida ishlashi uchun samarali ishlar amalga oshirildi.

2019-yilda Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish boʻyicha ustuvor vazifalar sifatida Shahrisabz shahrida Respublika boʻylab faoliyat yuritayotgan sanʼat vakillari orasida “Maqom anjumani” hamda turli yangi zamonaviy koʻrinishdagi festivallarni tashkil etgan holda Shahrisabz shahrini “Festivallar shahri”ga aylantirish, Kitob tumanidagi “Xojagiy Imkanagiy” ziyoratgohi, Mirishkor tumanidagi “Isoq Ota” majmuasi, Gʻuzor tumanidagi

³² Oʻzbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi joriy arxiv materiallari. 2022-yil yanvar.

“Musofir Ota” ziyoratgohini va turizm obyektlariga olib boruvchi jami 83 km yo‘l va yo‘lbo‘yi infratuzilma investitsiya dasturiga kiritildi.

Hozirgi davrda Qashqadaryo viloyatida madaniy meros obyektlari soni 1468 tani tashkil etib, vohaning ziyorat turizmi sohasidagi o‘rni naqadar beqiyos ekanligini ko‘rsatib turadi. Ushbu obyektlar orasidan 34 tasi viloyat madaniy meros boshqarmasi tomonidan alohida tarzda tanlab olingan bo‘lib, ushbu hududlarga mahalliy va xorijiy sayyohlar doimiy tarzda tashrif buyurishadi³³.

Istiqlol yillarida mazkur tarmoqni rivojlantirish uchun ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. Yurtimizda ziyorat turizmini taraqqiyotida O‘zbekistonning janubiy hududlari bo‘lmish Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida joylashgan ziyoratgoh va muqaddas qadamjolarining ham o‘rni beqiyosdir. Viloyatdagi tarixiy, me‘morchilik va arxeologiya obidalari, qadamjolar hamda o‘ziga xos madaniy va etnografik an‘analar mintaqa turizm xazinasi hisoblanadi. O‘zbekiston turizmi moddiy-texnik bazasining 87% Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlariga to‘g‘ri kelsada, Surxondaryo, Qashqadaryo vohasida ham sayyohlarni jalb etish mumkin bo‘lgan ko‘plab madaniy ziyorat turizm maskanlari mavjud³⁴.

2020-yilda Surxondaryo viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-apreldagi PQ-4667³⁵ sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2020-yil 22-may kuni 294-son bilan Denov tumanidagi “Xoja Alouddin Attor” jamg‘armasi tashkil etilib, unga guvohnoma olindi. Bugungi vaqtda me‘moriy obidani ta‘mirlash bo‘yicha toposyomka tayyorlandi, loyiha ishlari olib borilib, homiylik asosida ta‘mirlandi³⁶.

O‘zbekiston Musulmonlari idorasi huzuridagi “Vaqf” xayriya jamoat fondi Surxondaryo viloyat filialiga birlashtirilgan ziyoratgoh va qadamjolarida 2019-2020-yillar mobaynida “Takiya ota” ziyoratgohida 260 mln. so‘m, “Mavlono Muhammad Zohid” ziyoratgohi 800 mln. so‘m, “Xoja Alouddin Attor” ziyoratgohi 850 mln., “Sulton Sanjar Moziy” ziyoratgohi 350 mln. so‘m, “Oq ostona bobo” ziyoratgohi 500 mln. so‘m mablag‘ sarflandi. Bundan tashqari, “Takiya ota”, «Mavlono Muhammad Zohid”, “Xoja Alouddin Attor”, “Sulton Sanjar Moziy” va “Oq ostona bobo” ziyoratgohlarida qo‘shimcha inshootlar bunyod etildi.

2016-yilning aprel oyida Amir Temurning 680 yilligini munosib nishonlash munosabati bilan Shahrisabz shahrida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-fevraldagi 31-son qaroriga muvofiq ta‘mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Buyuk ipak yo‘lida joylashgan Shahrisabz shahrida madaniy meros obyektlaridan 14 tasida ta‘mirlash, qayta tiklash va obodonlashtirish ishlari olib borildi³⁷.

³³ Og‘zaki tarix materiallari. Qashqadaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i X.Hatamov bilan suhbat. 2022-yil 6-sentabr.

³⁴ O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi joriy arxiv materiallari. 2022-yil yanvar.

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-apreldagi PQ-4667 sonli “2020 — 2022-yillarda Surxondaryo viloyatining Denov tumani va uning markazini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.04.2020-y., 07/20/4667/0405-son.

³⁶ Surxondaryo viloyati Madaniy meros boshqarmasi joriy arxiv materiallari. 2022-yil fevral.

³⁷ Mamatmusayev T. O‘zbekiston tarixiy shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi. Arxitektura fan. dok. ilmiy daraja. olish uchun diss. avtoref. –Toshkent, 2019. –B.203.

O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuni, Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi³⁸, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda “2017-2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 975-son qarorlari qabul qilingach, respublikaning barcha hududlarida zamonaviy talab darajasidagi muzeylar tashkil etish zarurligi yaqqol ko‘zga tashlandi³⁹.

“Shahrisabz” muzey qo‘riqxonasi Prezidentning 2018-yil 19-dekabrda “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 40689-bandi hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-may 443-sonli qarori asosida ta‘sis etildi⁴⁰.

Mamlakatimizda 2020-yilda jami muzeylar soni 105 tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni 49 taga teng. Bu ko‘rsatkich 2005-yilda 99 tani, 2000-yilda 88 tani tashkil qilganligini hisobga olganda ushbu sohadagi o‘shish yaqqol ko‘rinadi. Muzeylarning 3 tasi Qashqadaryo viloyatida, 2 tasi Surxondaryo viloyatida joylashgan. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, 1515,8 ming nafardan iborat bo‘lib, ularning ma‘lum qismini sayyohlar tashkil etdi⁴¹.

Milliy qadriyatlarimizning bir qismi bo‘lgan ziyorat turizmi jahon miqyosida O‘zbekiston hududi shunday tarixiy qadriyatlar makoni bo‘lganligini, o‘lkada ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ro‘yobga chiqarayotgan xalqimiz uchun buyuk kelajak barpo etishda, bugungi dunyoni yangi ko‘z bilan ko‘rish, uni yangicha tafakkur bilan idrok etish jarayonlarida, ulug‘ ajdodlar merosi bilan tanishishi lozimligini anglatadi.

Xullas, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda muzey ishini rivojlantirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar va tadbirlar natijasida respublika muzeylari va undagi eksponatlar hamda muzeyga tashrif buyuruvchilar soni ham ortib bordi. Bu Qashqadaryo va Surxondaryo viloyati muzeylari faoliyatida ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Mintaqada joylashgan tarixiy muzeylarning xodimlari YUNESKO tashabbusi bilan uyushtirilgan ilmiy

³⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 18.01.2019-y., 06/19/5635/2502-son.

³⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda 975-sonli “2017 — 2027-yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.12.2017-y., 09/17/975/0398-son.

⁴⁰ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-maydagi 443-sonli “Sarmishsoy”, “Shahrisabz”, “Termiz” va “Qo‘qon” davlat muzey-qo‘riqxonalarini faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.05.2019-y., 09/19/443/3214-son.

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi joriy arxiv materiallari. 2022-yil yanvar.

anjumanlar va ko'rgazmalarning faol ishtirokchisiga aylandi. Muzeylar faoliyatini rivojlantirilishi natijasida tashrif buyuruvchilar orasida sayyohlar soni ham ortib bordi. Bu esa mamlakatimizda turizmning o'sishiga ham bevosita xizmat qildi.

Dissertatsiyaning “O‘zbekiston janubiy viloyatlarining turizmni rivojlantirish yo‘nalishlari va istiqbollari” nomli uchinchi bobida O‘zbekistonning xalqaro munosabatlarida turizmning o‘rni, shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida eko va etnoturizmni rivojlanish istiqbollari masalalari ko‘rib chiqilgan.

Uchinchi bobning *birinchi paragrafida* O‘zbekiston janubiy viloyatlarining turizm salohiyatini ommalashtirish yo‘nalishlari va imkoniyatlari tahlil qilingan.

Mamlakatimizda istiqbolning dastlabki kunlaridan boshlangan turizm faoliyati davlat siyosati darajasida mustahkamlandi. Bu sohani rivojlantirish uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy me‘yorlar belgilandi, turizm sohasini rivojlantirishga, ham turizm sohasi bilan shug‘ullanuvchi xususiy sektor ishiga qaratilgan huquqiy-me‘yoriy hujjatlarni joriy etish bo‘yicha maqsadli ishlar amalga oshirildi.

1993-yilda O‘zbekiston Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO – United Nations World Tourism Organization)ga a‘zo bo‘lgan⁴². O‘zbekiston Butun jahon turizm va sayohatlar bo‘yicha kengashi (BTSK)ning baholariga ko‘ra, sayyohlar kelishi borasida dunyo mamlakatlari orasida 150-o‘rinni egallab, uning hissasiga umumiy sayyohlar oqimining 0,2 foizi (bu boradagi respublika salohiyati 2,2 foiz) to‘g‘ri keldi⁴³. Hozirgi paytda mamlakatda xalqaro turizmning rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solish juda muhimdir. Yer yuzi bo‘ylab safarga otlanayotgan 900 mln nafarga yaqin sayyohning juda ham ozchilik qismi O‘zbekiston, umuman Markaziy Osiyo davlatlari haqida tasavvurga ega. Oddiy sayyohlar u yoqda tursin, hatto mamlakatimizga tashrif buyurayotgan ko‘plab mashhur davlat, jamoat, adabiyot va san‘at arboblari ham O‘zbekistonni endi asta-sekin kashf eta boshlashdi.

1994—1995-yillar mobaynida “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasining 87,8% turistik obyektlari davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiylashtirildi⁴⁴. Natijada turizm sohasida olinayotgan daromadlarning keskin o‘shishiga erishildi: 1993-yilda 11,3 million so‘m miqdorida daromad olinib, bundan 2,1 million so‘m foyda ko‘rilgan bo‘lsa, 1994-yilda 221,3 million so‘m daromad olingan va bundan 110,6 million so‘m foyda qilingan. Olib borilayotgan o‘zgarishlar turizmni qabul qilish shaklini jadallik bilan rivojlantirdi.

1995-yil oktabrida Toshkent shahrida “Ipak yo‘lida turizm” nomi bilan birinchi turistik yarmarka o‘tkazilib, unda 33 davlatdan 100 tadan ortiq firmalar, Ipak yo‘lida joylashgan davlatlarning milliy turizm tashkilotlarining rasmiy delegatsiyalari ishtirok etdi.

⁴² O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari (xorijiy tajribalar asosida) “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 6-son, noyabr-dekabr, 2020-yil.

⁴³ «Kun.uz» sayti materiallari «O‘zbekiston turizmdagi raqobat bardosh mamlakatlar reytingiga kiritilmadi» 22.02.2017 yil. <https://kun.uz/90173258>,

⁴⁴ Jumayev, B. (2022). O‘zbekistonda turizm sohasining shakillanishi va rivojlanishi (1991-2022-yillar). Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке, (1), 242–245. <https://doi.org/10.47689/innovations-in-edu-vol-iss1-pp242-245>

1997-yilda “O‘zbekturizm” sayyohlik borasida 100 ga yaqin yo‘nalishlarni taklif etgan. Tog‘ turizmi, ovchilik va baliq ovlashni sevuvchilar uchun “O‘zmaxsustur” o‘z yo‘nalishlarini ishlab chiqdi. Sport turlarini 8 ta kompaniya (AST, Yordamchi, Erta, Al-Geo, Pandsher, Asia-Raft, Toshkent turistik va sport klubi, Mountain Club) taklif etadi⁴⁵.

Statistika qo‘mitasining ma‘lumotlariga ko‘ra 2000-yilda O‘zbekistonga 278,0 ming nafar sayyohga, 2001-yilda – 233,0 ming nafar, 2002-yilda – 325,0 ming nafar, 2003-yilda – 350,0 ming nafar, 2004-yilda – 380,0 ming nafar, 2005-yilda – 400,0 ming nafar, 2006-yilda – 410,9 ming nafar va 2007-yilda 583,7 ming nafar sayyohga hizmat ko‘rsatilgan bo‘lib, bu soha bilan o‘rtacha 40 ming nafardan ortiq kishi band⁴⁶bo‘lib, shu davrda turistlar soni 210,0% ga o‘sd. Agar uning o‘zgarish sur‘atini yilma-yil tahlil qiladigan bo‘lsak, 2002-yilda 2001-yilga nisbatan 139,5% va 2007-yilda 2006-yilga nisbatan 142,1% ga oshgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2000-yilda xalqaro turistik oqim 680 mln nafarni, 2005-yilda 809 mln nafarni, 2010-yilda 952 mln nafarni, 2015-yilda 1195 mln nafarni, 2017-yilda 1326 mln nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2018-yilda xalqaro turistlar soni 1401 mln nafarga yetdi⁴⁷.

Qolgan mazkur tadbirlar natijasida O‘zbekistonga kelgan tashrif buyuruvchi sayyoh(chet el fuqaro)lar soni 2014-yilda 1 mln 861 ming nafaridan 2017-yilda 2 mln 690 ming nafarga, 2019-yilda esa 6 mln 748 ming nafarga yetdi. 2014-yilda ulardan 1 mln 698 ming nafari MDH davlatlaridan 163 ming nafari uzoq xorijdan tashrif buyurgan bo‘lsa, 2017-yilda bu ko‘rsatkich mutanosib ravishda 2 mln 508 ming nafarga 181 ming nafarni, 2019-yilda 6 mln 260 ming nafarga 488 ming nafarni tashkil qildi⁴⁸.

2020-yilda sayyohlar oqimining 23 foizga o‘ssishi kutilayotgan edi, ya‘ni respublikaga 8,3 million nafardan ortiq sayyoh kelishi rejaga kiritilgan edi, biroq butun dunyoni qamrab olgan pandemiya tufayli koronavirus infeksiyasining hududga tarqalishining oldini olish maqsadida 2020-yil 16-martdan boshlab O‘zbekiston rahbariyati chegaralarini harakatlanish uchun yopdi, shu munosabat bilan sayyohlar oqimi keskin kamaydi. Tahlillarga ko‘ra, 2020-yilda O‘zbekistonga kelayotgan sayyohlar soni qariyb 50 foizga qisqardi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish, turizmning asosiy obyektlari bo‘lgan tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish hamda ulardan foydalanish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda, ilmiy-tadqiqotlar natijasida tariximizning yangi-yangi sahifalari o‘zbek xalqining ma‘naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini butun dunyoga namoyish qilmoqda va o‘z navbatida, millatimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rnini yanada mustahkamlanishiga asos bo‘lmoqda. Ajdodlarimiz yaratgan madaniy-ma‘naviy meros butun jahon madaniyati ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan umumbashariy qadriyatlar sifatida tan olinmoqda.

⁴⁵ Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanishi va uning meyoriy-huquqiy asoslari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. -2022. -№ 1(4). –B.112.

⁴⁶ O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi joriy arxiv materiallari. 2022-yil yanvar.

⁴⁷ WTO/ Member States of Middle East". World Tourism Organization. Retrieved 16 January 2015. // <http://wto.org>

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi joriy arxiv materiallari. 2022-yil yanvar.

Mazkur bobning *ikkinchi paragrafida* Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida etno va ekologik turizmini rivojlanish istiqbollari ochib berilgan.

Mustaqillik yillarida tabiatni muxofaza qilishga bo'lgan e'tibor mamlakatimizga kelayotgan xorijiy tabiatsevarlar safining kengayishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish, ularning yurtimiz haqidagi tasavvurlarini boyitish uchun turistik korxonalar rahbarlari, turoperatorlar, mehmonxona xizmatchilari malakasini oshirish bo'yicha "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tomonidan turli o'quv kurslari, seminarlar o'tkazib kelinmoqda. Turizm rivojlangan mamlakatlarda raqobat yaxshi rivojlangan bo'lib, sayyohlar oqimining ko'pligi soha obyektlarining to'liq quvvatlarda ishlashi va narx borasida raqobatlashishiga imkon beradi. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish, jumladan, hududlarda imkoniyatlar ishga solinmagan.

Qashqadaryo viloyati hududi asosan shimoli-sharq va janubi-sharqdan Zarafshon hamda Hisor tog' tizmalari bilan o'ralgan. Tog'lar bilan tekisliklar orasini adirlar egallagan. Tekislikning katta qismi g'arbda Sandikli va Qizilqum cho'llari bilan tutashgan Qarshi cho'lidan iborat. Iqlimi kontinental. Qishi nisbatan yumshoq. Yozi uzoq (155-160 kun), issiq, quruq. Yanvarning o'rtacha harorati 0.2 darajadan 1.9 darajagacha, iyulniki 28-29.5 daraja. Eng yuqori harorat +45 daraja. Eng past harorat 20 daraja. Yiliga tekisliklarda 290-300 mm., adirlarda 520-550 mm., tog'larda 550-650 mm. yog'in tushadi. Yog'in asosan bahor va qishda yog'adi, yozda garmsel esadi⁴⁹.

Mazkur viloyat havzasida va Pomir-Oloy tog' tizmasining g'arbiy chekkalarida joylashgan. Viloyat hududi g'arbdan sharqqa tomon dengiz sathidan 300-400 metrgacha ko'tarilib boradi. Hududning sharqiy qismi Kitob-Qamashi tog' etaklaridan iborat bo'lib, u yerlarning dengiz sathidan balandligi 450-500 dan 900-950 metrgacha boradi, bu tog'larning asosiy qismi uning shimoli-sharqiy qismini egallagan. Bu yerdagi tog'larning eng baland nuqtalari 4000 metrgacha yetadi. Qashqadaryo viloyati maydoni 28,6 kv. km, aholisi 3.408.3 mingdan ortiq (2022). Aholining qariyb 3/4 qismi qishloqlarda istiqomat qiladi⁵⁰.

Milliy-madaniy markazlar etnomadaniy ehtiyojlarni qondirishga, tarixiy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga hamda mamlakatda millatlararo totuvlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ular o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish bilan birga, bir-birlari bilan yaqin hamkorlik qilib, O'zbekistonda yashayotgan turli millat vakillari orasidagi o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlashga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqdalar. Dastlabki milliy madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989-yilda tashkil etilgan. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. Bu davrda ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada ularning soni yil sayin ortib bordi.

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi milliy ensiklopediyasi "Q" harfi. Toshkent. 2015. -B.612.

⁵⁰ Qashqadaryo viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi hisobotlari. 2022-yil yanvar.

Prezidentimizning 2019-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni⁵¹ga ko‘ra “Turizm qishlog‘i” maqomi berilgan hududlarda zamonaviy infratuzilma rivojlantirilib, obod maskanga aylantiriladi. Keng, ravon yo‘llar barpo etilib, elektr energiyasi, gaz, suv, kanalizatsiya tizimi yaxshilanib, bir maromda ishlashi ta‘minlanadi. Mobil aloqa va internet tarmog‘i sifati oshirilib, aholi va sayyohlarga zamonaviy xizmatlar ko‘rsatish yuksaladi. Bu esa, o‘z navbatida, viloyatda etno va agroturizm yo‘nalishlarini rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Boysun tumanidagi Padang qishlog‘ida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Surxondaryo viloyati hokimligi va boshqa tashkilotlar hamkorligida har yili aprel oyining oxirgi haftasida “Boysun bahori” ochiq folklor festivali o‘tkaziladi⁵².

Yuqorida qayt e‘tilgan ma‘lumotlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida o‘ziga xos yo‘nalishlarda turizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarga ega. Shuni inobatga olish kerakki Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari qolgan hududlarga nisbatan rivojlanish ko‘rsatkichlariga ko‘ra ancha yuqori o‘rinlarni egalaydi. Bunga asosiy sabalardan biri uning qulay geografik muhitda joylashganligi va uzoq shonli tarix egasi ekanligidadir. Tabiati go‘zal va so‘lim bo‘lgan hududlarda ekoturizm, tarixiy qadamjolar manzillarida esa ziyorat turizmni rivojlantirish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Shu bois viloyatda turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha alohida dasturlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida qadimdan o‘zbeklar bilan yelkadosh bo‘lib boshqa ko‘plab millat va elat vakillari istiqomat qilib kelgan. Rus, tatar, arab, tojik hamda turkman millati vakillari ko‘pchilikni tashkil etishib, mintaqaning ayrim hududlarida ularning hanuzgacha o‘z milliy urf-odat va marosimlarini saqlagan holatda yashab kelayotganligini kuzatish mumkin.

XULOSA

1991-2020-yillarda O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida turizmning rivojlanishi tarixini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mustaqillikning dastlabki yillarda turizm sohasiga biroz sust darajada e‘tibor qaratildi. “O‘zbekturizm” kompaniyasining hududiy bo‘linmalarida turizm sohasini rivojlantirish uchun yetarli darajada ish olib borilmaganligi, xizmat ko‘rsatish tizimidagi kamchiliklar, kadrlar yetishmasligi, turistik marshrut yo‘nalishlarini ishlab chiqilmaganligi, sayyohlar tashrif buyuradigan hududlarga olib boradigan yo‘llarning nosozligi yurtimizga sayyohlar tashrifini kamayishiga sabab bo‘ldi. 2016-yildan boshlab turizm sohasiga davlatimizning yangicha tarmog‘i sifatida e‘tibor qaratila boshlandi. Shu yilning o‘zidayoq turizmni rivojlantirish maqsadida “Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi” tuzildi. Davlatimiz rahbari tomonidan dunyo mamlakatlari bilan qo‘shnichilik aloqalarini mustahkamlash

⁵¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son «O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. // Xalq so‘zi, 2019-yil 15-Avgust.

⁵² Surxondaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi 2021-yil uchun yillik hisoboti. 2022-yil fevral.

maqsadida turizm sohasiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bunga ko'plab mamlakatlar bilan yurtimizga sayyohlar oqimini oshirish uchun viza tartiblarini soddalashtirish, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish hamda ularni rekonstruksiya qilish, bundan tashqari turizmga oid 2016-2020-yillar mobaynida 30 ga yaqin huquqiy-me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi ushbu soha rivojiga ulkan hissa qo'shdi.

2. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida turizm sohasi bir tekisda rivojlanmadi. Mintaqaning turistik imkoniyatlariga yetarli darajada baho berilmaganligi hamda ushbu hududlarda joylashgan turistik obyektlarga sayyohlarni jalb qilish ishlarida muammolar yuzaga kelganligi, hududga xos hisoblangan ziyorat turizmi, gastronomik turizm, tog' turizm, safari turizm yo'nalishlari bo'yicha sayyohlarda yetarlicha ma'lumot bo'lmaganligi turizmning rivojlanishiga to'sqinlik qildi.

3. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida maqsadli turizm xizmatlarini ko'rsatish uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirish, sayyohlarni noyob tarixiy va madaniy-me'moriy meros bilan keng tanishtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mintaqani madaniy-ko'ngilochar tadbirlar markaziga aylantirish ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshirildi.

4. Bugungi kunda mamlakatimizda muzeylar soni 444 tani tashkil etib, ulardan 10 dan ziyodi mintaqada joylashgan. Ushbu muzeylarning saqlanayotgan noyob eksponatlar haqida yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlarda tassavurning yo'qligi vohada turizmning rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazdi. Butun dunyoda keng tarqalgan COVID-19 pandemiyasi muzeylar faoliyatiga jiddiy to'siq bo'ldi. Buning natijasi o'laroq koronavirus pandemiyasi sharoitida vohadagi muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni keskin darajada kamayib ketdi.

5. O'zbekiston Respublikasi istiqbolga erishgan kundan e'tiboran jahon mamlakatlari bilan diplomatik va do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashga harakat qildi. Yurtimizda o'tkazilayotgan turli xildagi xalqaro ko'rgazmalar, ilmiy konferensiyalar va dunyo mamlakatlari bilan birga o'tkaziladigan bayram tadbirlari yurtimizga xorijlik sayyohlar tashrifini oshirdi. Bu esa xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda turizmning o'rnini muhimligini ko'rsatildi.

6. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari yurtimizning eng ko'p tarixiy-madaniy meros obyektlariga ega hududlaridan hisoblanadi. Voha hududlaridagi ziyoratgohlarga sayyohlar tashrifi yildan yilga oshib bormoqda. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ushbu hududlardagi ayrim qarovsiz ahvoldagi ziyoratgohlar qayta ta'mirlanib, u yerga sayyohlar tashrifi qayta tiklandi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha o'z yechimini kutayotgan qator dolzarb muammolar mavjudligi aniqlanib, ularni hal etish borasida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. O'zbekistonning janubiy viloyatlaridagi turistik obyektlar haqida ma'lumot beruvchi bannerlarni joylash, internet sahifalari va ijtimoiy tarmoqlarda reklamalarni tarqatish, jahon talablariga mos keladigan turistik mobil ilovalarni yaratish, Qashqadaryo va Surxondaryoning turizmga oid manzilgohlarini o'zida to'la mujassam etgan qo'llanmalar nashr etish orqali mintaqaga qiziquvchi

sayyohlar tashrifini oshirish uchun ularda yetarlicha hudud bo'yicha tasavvur hosil qilishga imkoniyat beradi.

2. Janubiy vohalarning o'z turtistik salohiyatidan kelib chiqqan holda, hududlarda ziyorat turizmi, gastronomik turizm, etnoturizm, ekoturizm, tog' turizmi va qishloq turizmini rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq. Viloyatlarning har bir turizm yo'nalishlari bo'yicha alohida turizm marshrut-yo'nalishlarini ishlab chiqqan holda turistik xaritalar yaratish tufayli sayyohlar tashrifini oshishiga hamda ularning yurtimizda mazmunli va sifatli dam olishlari uchun o'ziga xos zamonaviy qulayliklar yaratadi.

3. Mintaqada sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida vohadagi turoperatorlar xizmat ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirilsa hamda yuqori bilimga ega, shu bilan birga xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan xodimlarni yetkazib berilsa hududda turizmni rivojlanishida oqsab turgan yana bir muammoning yechimini topadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РНД.03/27.02.2021. ТАР.70.05 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ЭРАЛОВ АЗАМАТ ЖОМУРОДОВИЧ

**ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ЮЖНЫХ ОБЛАСТЯХ
УЗБЕКИСТАНА (1991-2020 г.)**

07.00.01 - История Узбекистана

АВТОРЕФЕРАТ

**Диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по
историческим наукам**

Карши – 2023

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистана за № В.2020.1.PhD/Tar 777.

Диссертация выполнена в Каршинском инженерно-экономическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.qarshidu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Эргашева Юлдуз Алимовна**
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Хасанов Эркин Муминович**
доктор исторических наук, доцент

Эгамбердиева Гузал Акрамжановна
доктор философии по истории

Ведущая организация: **Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится «____» _____ 2022 году в ____ часов на заседании Научного совета PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 по присуждению ученых степеней при Каршинском государственном университете (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Кучабог, 17. Тел: (+99875) 225-34-13; факс: (+99875) 221-00-56; e-mail: kardu@mail.ru). Каршинский государственный университет.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 180100, город Карши, улица Кучабог, 17. Тел: (0 375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: kardu@mail.ru).

Автореферат диссертации разослан «____» _____ 2022 года
(реестр протокола рассылки № ____ от «____» _____ 2022 года).

Б.Ж.Эшов

Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.и.н., профессор

Н.Н.Ражабова

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
к.и.н., доцент

О.Буриев

Заместитель председателя Научного
семинара при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
к.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В современном мире сфера туризма становится одной из основных отраслей экономики многих стран. Узбекистан также является одним из центров туризма. Великий шелковый путь, соединяющий Китай и страны Европы, издревле привлекал туристов, что является доказательством того, насколько богата история туризма в нашей стране. Такие города, как Самарканд, Бухара, Хива, Шахрисабз, Термез и Кокан имеющие огромное количество памятников архитектуры охватывающий исторический период, также расположены на данном пути. Ежегодное посещение тысяч туристов этих городов, является подтверждением нашего мнения.

Научно-исследовательские институты и центры ведущих стран мира проводят научные изыскания и многочисленные исследования, направленные на улучшение туризма, изучение проблем в данной области, определение перспектив развития туризма. В частности, особое внимание уделяется изучению факторов туризма и туристических услуг, проблемам развития отрасли и вопросам ее развития путем инновационных подходов. В частности, возрастает внимание к исследованиям различных направлений туризма, таких как внутренний и внешний туризм, историко-культурный туризм, паломнический туризм, экотуризм, природный туризм.

С обретением независимости Узбекистан проходит постепенный этап изучения и реформирования своей истории. В связи с этим возрождение сферы туризма, которая непосредственно связана с историей нашей страны, и и до настоящего времени осуществляются коренные реформы, что показывает повышенное внимание к данной отрасли. Узбекистан считается страной с большим туристическим потенциалом. Для привлечения иностранных туристов в нашу страну и увеличения разнообразия туристических услуг вводятся новые маршруты. В настоящее время активисты местного туризма интенсивно участвуют на ярмарках, организуемых в разных странах мира: Лондоне, Берлине, Мадриде, Милане, Москве, Шанхае, Сеуле, Токио. Заключены договоры о взаимном сотрудничестве с туроператорами ведущих стран мира, что способствует увеличению туристического потока в нашу республику. Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзияев¹: «Сегодня туризм является одной из перспективных отраслей, приносящих высокий доход национальной экономике». Узбекистан – страна с большим потенциалом в сфере туризма. С этой точки зрения обозначение туристических возможностей Узбекистана, анализ факторов, направленных на развитие туризма и расширение сети, и указание путей их рационального использования определяют актуальность выбранной темы.

Укази Президента Республики Узбекистан № УП-4861 от 2 декабря 2016 года «О мерах по обеспечению опережающего развития туристической отрасли Республики Узбекистан», от 7 февраля 2017 года - № УП-4947 «О

¹ Мирзияев Ш.М. Согласие нашего народа – это высшая оценка нашей деятельности. 2-ж. –Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – 128 с.

Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», от 3 февраля 2018 года УП-5326 «Дополнительные организационные меры по созданию благоприятных условий для развития туристского потенциала в Республике Узбекистан, постановление от 5 января 2019 года № УП-5611 «О дополнительных мерах по развитию туризма в Узбекистане», от 6 февраля 2018 года РП-3509 «О мерах по дальнейшему развитию въездного туризма», от 7 февраля 2018 года РП-3514 «О мерах по обеспечению дальнейшего развития внутреннего туризма». Данная диссертационная работа в определенной степени служит для реализации задач, поставленных в новой редакции Закона Республики Узбекистан «О туризме» и другими правовым-нормативными актам, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования с приоритетным направлением развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления республиканского развития науки и техники I. «Методы формирования и реализация системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурно-духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

